

NEMIS TILIDA KELISHIK KATEGORIYASINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA MUAMMOSIGA DOIR

**Axyamov Azizboy (PhD) nemis va fransuz tillari kafedrasida katta
o‘qituvchisi Mamatqulov Shohijahon FarDU talabasi**

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemis tilidagi badiiy asarlarning o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan kelishik kategoriyasining farqli va o‘xshash jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Abstract

This article discusses the different and similar aspects of the category of agreement that arise in the process of translating German works of art into Uzbek.

Аннотация

данной статье рассматриваются разные и схожие аспекты категории договора, возникающие в процессе перевода немецких произведений искусства на узбекский язык.

Kalit so‘zlar: kelishik kategoriyalari, grammatik tafovutlar, etnik jihatdan farqli tomonlari, predlogli so‘zbrikmalri, o‘zbek tilidagi muqobillik.

Key words: agreement categories, grammatical differences, ethnically different aspects, prepositional adverbs, alternation in Uzbek language.

Ключевые слова: категории согласия, грамматические различия, этнически разные аспекты, предложные наречия, чередование в узбекском языке.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev jahon adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga tarjima qilinishi haqida shunday to‘xtaladi: “ Biz O‘zbekistonda “Adabiy do‘stlik - abadiy do‘stlik” degan chuqur ma’noli natijalarga amal qilgan holda, jahon adabiyoti durdona asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g‘oyat jiddiy e’tibor qaratmoqdamiz.”

Badiiy asar tarjimasidagi asosiy muammolardan biri - bu asrning asil tili va tarjima qilinayotgan til o‘rtasidagi grammatik tafovutlar hisoblanadi. Bu

vaziyatga nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinayotgan materiallarning tarjima qilish jarayonini aniq fakt sifatida keltirish mumkin. Bundan tashqari nemis tili yevropa tillar oilasiga mansub bo‘lib etnik jihatdan farqli tomonlari ko‘proq ko‘zga tashlanadi va tilning bu jihati tarjimon uchun yetrlicha qiyinchiliklarga sabab bo‘la oladi.

Masalan biz buni quyida keltirilgan badiiy asar va uning tarjimasi orqali ko‘rishimiz mumkin.

“Edgar Staub beißt in den letzten Keks. Er sieht aus dem Fenster. Der Zug steht immer noch in Karlsruhe. Schon seit zwanzig Minuten.”

“Edgar Staub oxirgi keksni tishladi. U oynadan tashqariga qaradi. Poezd hali ham, yigirma daqiqadan beri Karlsruheda.”

Aavvalambor ushbu parchaning umumiy tuzilishiga e‘tibor qaratsak. Matn umumiy to‘rta oddiy gapdan iborat va bu bir qarashda go‘yoki hech qanday qiyinchilkka sabab bo‘lmaydigandek ko‘rinadi. Ammo matnda asosiy e‘tibor berilishi kerak bo‘lgan to‘rta predlogli so‘z birikmalari mavjud. Bular — **“in letzten Keks”** (“oxirgi keksni”), **“aus dem Fenster”** (“oynadan”) , **“in Karlsruhe”** (“Karlsruheda”), **“seit zwanzig Minuten”** (“yigirma daqiqadan beri”). Ko‘rish mumkinki birinchi va uchinchi so‘z birikmalarida bir xil **Dativ va Akkusativ** kelishigiga tegishli **“IN”** predlogi ishlatilgan. Shu sababli ularni ikki xil tarjima qilina. Masalan, agar **“IN”** predlogi o‘rin - payt ma’nosida ishlatilsa **“-da”**, aksincha yo‘nalish ma’nosini anglatlsa, aynan jo‘nalish kelishigining qo‘shimchasi **“-ga”** shaklida tarjima qilinadi va ular aynan shu holda ya’ni so‘z birikmasi sifatida tarjima qilinganda ular bir xil ma’noni anglatadi. Masalan **“oxirgi keks - da”** va **“Karlsruhe - da”** deb tarjima qilinadi. Biroq bu ikki so‘z birikmasi to‘liq gap bilan tarjima qilinsa, birinchi gapda **“IN”** predlogi **“beißen”** (“tishlamoq”)harakatni ifodalovchi fe‘l bilan birga qo‘llanilsada, o‘zbek tilidagi tushum kelishigining qo‘shimchasi **“- ni”** tarzida tarjima qilinishi kerak, ammo, nemis tilida bazi hollarda predloglarning ishlatilishi fe‘llarnig anglatayotgan ma’nosiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari yana shunday fe‘llar borki ularning anglatayotagan ma’nosidan qat’i nazar ular

har doim o‘zi birga keldigan maxsus predloglar bilan ishlatiladi. Ushbu matndagi, yuqorida keltirilgan **“beißen”** fe‘li har ikki holatga misol bo‘la oladi. Uning asl tarjimasi **“tishlamoq”** va bu fe‘l harkatni ifodalaydi. Yana ham aniqlik kiritilsa, agar narsa tishlansa tishlar uning ichiga qarab harakatlanadi, shuning uchun ushbu matnda **“IN”** predlogi tushum kelishigida tarjima qilingan.

Uchinchi gapda esa **“IN”** predlogining **Dativ** holatida tarjima qilinganligi aniq ko‘rinadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, nemis tilida predloglarning ishlatilishi gapda foydalanilayotgan fe‘lga va uning anglatayogan ma‘nosiga yoki fe‘lning doim birga qo‘llaniladigan predlogiga bog‘liq.

“aus dem Fenster” va **“seit zwanzig Minuten”** so‘z birikmalrida esa faqat **Dativ** kelishiga qarashli bo‘lgan predloglar qo‘llanilgan, shu jihatdan ularning so‘z birikmasi sifatida ham gap ichida ishlatilgan holatida ham tarjima qilinganda deyerli ma‘no o‘zgarmaydi. Yuqorida keltirilgan birinchi so‘z birikmadagi **“aus”** predlogi esa o‘zbek tilidagi chiqish kelishigining qo‘shimchasi **“-dan”** sifatida tarjima qilinadi. Ikkinchi birikmadagi **“seit”** predlogi esa **“-dan beri”** deb tarjima qilinadi, ammo uning o‘zbek tili kelshigidagi muqobilini topish mushkil masala.

Umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nemis tilidagi dativ kelishigi bir vaqtning o‘zida o‘zbek tilidagi ham o‘rin - payt ham chiqish kelishiginninng vazifasida kelish mumkin. Buning asosiy sabablarida biri: felning qanday ma‘no anglatishi va qaysi so‘roqlarga javob berishi hisoblanadi. Akkusativ kelishigi esa huddi tushum kelishigi kabi tarjima qilinadi, biroq u narsa - predmetning harakatini yoki holatini bildiruvchi predloglar bilan qo‘llanilsa huddi jo‘nalish kelishigi kabi tarjima qilinishiga qaramasdan, u bilan kelgan otning artikeli doim akkusativda bo‘lishi talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akhtyamov A.E. ОСОБЕННОСТИ ПРАГМА ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ТЕЛЕВИЗИОННОЙ РЕКЛАМЫ // The Way of Science. – 2022. Т. 6. № 100. – С. 54-55.
2. Akhtyamov A.E. АНАЛИТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ТРАНСКРИПЦИИ РАЗГОВОРОВ ПРИ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ ТЕЛЕВИЗИОННОЙ РЕКЛАМЫ // The Way of Science. – 2022. Т. 6. № 100. – С. 51-53.
3. Akhtyamov A.E. ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОСТАВНЫХ ЧАСТЕЙ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ // FarDU. ILMİY XAVARLAR. – 2022. – С. 222-225
4. Christa Dürscheid — “Die verbalen Kasus des Deutschen”, Walter de Gruyter Berlin New York – 1999
5. Guido Seiler — “Präpositionale Dativmarkierung im Oberdeutschen” Franz Steiner Verlag – 2003
6. Leonhard Thoma — “Das Idealpaar” , “ Das Mädchen im Zug” Depósito Legal M – 41253 – 2007
7. Sahel, Said (2018): Kasus. Heidelberg: Universitätsverlag Winter
8. Granzow-Emden, Matthias (2019): Deutsche Grammatik verstehen und unterrichten.
9. АХТЯМОВА. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И ИХ ПРАГМА ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 131-135.
10. АХТЯМОВА. Э. СВОЙСТВА РЕКЛАМНОГО ТЕКСТА //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 128-130.
11. Ахтямов А. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И РАЗВЕРТЫВАНИЕ ТЕМЫ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 123-126.